

TDT DOIRASIDA MARKAZIY OSIYO TASHABBUSLARINING BARQARORLIGI

YO'LDOSHEVA ZEBINISOBEGIM FARRUX QIZI

*O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

2-kurs XIM talabasi

E-mail : z91262501@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqola Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) doirasida Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan ilgari surilayotgan mintaqaviy tashabbuslarning barqarorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. So'nggi yillarda transport-logistika bog'liqligi, savdo-iqtisodiy integratsiya hamda raqamli hamkorlik yo'nalishlarida TDT platformasining o'rni sezilarli darajada kuchayib bormoqda. Tadqiqotning maqsadi — Markaziy Osiyo tashabbuslarining institutsional, siyosiy va iqtisodiy barqarorlik omillarini aniqlash hamda ularning uzoq muddatli samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy va institutsional tahlil, shuningdek rasmiy hujjatlarning kontent-tahlili usullari qo'llanildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tashabbuslarning barqarorligi, avvalo, mintaqa davlatlari manfaatlarining uyg'unligi, infratuzilma loyihalarining izchilligi va TDT doirasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlarining samaradorligiga bog'liq. Shu bilan birga, tashqi geosiyosiy omillar va moliyaviy cheklovlar ayrim loyihalarning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maqolada olingan xulosalar TDT doirasida mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish va Markaziy Osiyoning tranzit hamda iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Turkiy Davlatlar Tashkiloti; Markaziy Osiyo; mintaqaviy hamkorlik; barqarorlik; regionalizm; transport yo'laklari.

Kirish

So'nggi yillarda Turkiy davlatlar Tashkiloti Yevroosiyo makonida muhim mintaqaviy platforma sifatida faolroq namoyon bo'lmoqda. Tashkilot doirasida transport, savdo-iqtisodiy integratsiya va raqamli hamkorlik yo'nalishlaridagi tashabbuslar Markaziy Osiyoning geoiqtisodiy ahamiyatini oshirmoqda (OTS, 2021). Global ta'minot zanjirlarining qayta shakllanishi sharoitida TDT mintaqa davlatlari uchun qo'shimcha muvofiqlashtirish mexanizmini taqdim etayotgani kuzatiladi (World Bank, 2024).

Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik so'nggi davrda sezilarli darajada faollashdi. Siyosiy ishonchning ortishi va transport loyihalarining kengayishi

integratsiya jarayonlarini tezlashtirmoqda (International Crisis Group, 2023). Biroq mavjud adabiyotlarda TDTning umumiy rivoji yoritilgan bo'lsa-da, aynan Markaziy Osiyo tashabbuslarining barqarorligi yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan (Amreyev, 2022).

Ilmiy manbalarda “barqarorlik” ko‘pincha tashabbuslarning uzoq muddatli ishlash qobiliyati, institutsional mustahkamlik va siyosiy manfaatlar uyg‘unligi bilan bog‘lanadi (Yilmaz, 2023; Musabay Baki, 2022). Shu nuqtai nazardan, TDT doirasidagi loyihalarning haqiqiy barqarorlik omillarini har taraflama baholash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — TDT doirasida Markaziy Osiyo tashabbuslarining barqarorligini baholash va unga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlashdir. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: tashabbuslarning institutsional holati qanday, ularning barqarorligiga qaysi omillar kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda va mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun qaysi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi?

Maqola davomida avval nazariy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi, so‘ng metodologiya bayon etiladi, keyingi bo‘limlarda amaliy tahlil berilib, yakunda xulosa va tavsiyalar taqdim etiladi.

Nazariy asos va adabiyotlar sharhi

Mavjud ilmiy va rasmiy manbalar TDT doirasidagi hamkorlikni turli nazariy rakurslardan yoritadi. Institutsional yondashuv doirasida Huseyn (2023) TDTning iqtisodiy hamkorlik mexanizmlari “Turkic World Vision–2040” bilan tizimli ravishda mustahkamlanayotganini ta’kidlaydi. Musabay Baki (2022) esa ushbu hujjatni turkiy hamkorlikning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga qaratilgan strategik yo‘l xaritasi sifatida baholaydi. Amreyev (2022) TDTni shakllanayotgan mintaqaviy ishtirokchi sifatida ko‘rib, uning institutsional imkoniyatlari ortib borayotganini qayd etadi.

Regionalizm nazariyalari nuqtai nazaridan Yilmaz (2023) turkiy makonda iqtisodiy integratsiya asosan transport bog‘liqligi va savdo oqimlari orqali chuqurlashayotganini ko‘rsatadi. Purtaş (2022) TDT doirasida Turkiyaning rolini tahlil qilib, tashkilotning siyosiy koordinatsiya platformasi sifatidagi ahamiyati kuchayib borayotganini asoslaydi. Shu bilan birga, International Crisis Group (2023) Markaziy Osiyoda hamkorlik ijobiy dinamikaga ega bo‘lsa-da, institutsional barqarorlik hali to‘liq shakllanmaganini ta’kidlaydi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud adabiyotlar TDTning umumiy rivojini yetarlicha yoritadi, biroq aynan Markaziy Osiyo tashabbuslarining amaliy barqarorlik omillari kompleks kesimda kam o‘rganilgan. Shu asosda maqolada mualliflik konsepsiyasi — ko‘p omilli barqarorlik modeli — ilgari suriladi. Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, institutsional uyg‘unlik, barqaror moliyalashtirish va siyosiy

manfaatlar mosligi ta'minlangan sharoitda TDT doirasidagi Markaziy Osiyo tashabbuslari yuqori barqarorlikka ega bo'ladi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot TDT doirasida Markaziy Osiyo tashabbuslarining barqarorligini har tomonlama baholashga qaratilgan bo'lib, asosan sifat yondashuviga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot sifatli tahlilini ustuvor qo'llagan aralash yondashuv elementlarini qamrab oladi. Bu esa institutsional jarayonlar hamda siyosiy-iqtisodiy omillarni chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, institutsional tahlil va rasmiy hujjatlarning kontent-tahlili asosiy metodlar sifatida qo'llanildi.

Qiyosiy tahlil orqali TDT doirasida ilgari surilayotgan asosiy tashabbuslarning rivojlanish sur'ati va barqarorlik ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi. Institutsional tahlil yordamida tashkilotning normativ-huquqiy asoslari, muvofiqlashtirish mexanizmlari hamda qaror qabul qilish amaliyoti baholandi. Hujjatlar tahlili esa sammit deklaratsiyalari, strategik dasturlar va sohaviy kelishuvlarning mazmunini tizimli o'rganishga xizmat qildi.

Manbalar bazasini TDTning rasmiy hujjatlari, a'zo davlatlar strategiyalari, shuningdek Jahon banki, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlari tashkil etdi. Tadqiqotning asosiy cheklovi sifatida ayrim tashabbuslar bo'yicha yangilangan statistik ma'lumotlarning yetarli emasligi hamda ayrim loyihalarning hali to'liq yakuniy bosqichga yetmaganini ko'rsatish mumkin.

TDT doirasida Markaziy Osiyo tashabbuslari: hozirgi holat

TDT doirasida Markaziy Osiyoga oid tashabbuslar so'nggi yillarda aniq iqtisodiy va infratuzilmaviy ko'rsatkichlar bilan mustahkamlanmoqda. Eng faol yo'nalish transport va logistika hisoblanadi. Xususan, Transkaspiy xalqaro transport yo'lagi (O'rta yo'lak) orqali yuk tashish hajmi 2021 yildagi 1,5 mln tonnadan 2023 yilda 2,7 mln tonnaga yetdi (World Bank, 2024). TDT davlatlari bojxona tartiblarini soddalashtirish va multimodal tashuvlarni kengaytirish bo'yicha qo'shma choralarni bosqichma-bosqich joriy etmoqda (OTS, 2022). Bu mintaqaning tranzit salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Savdo-iqtisodiy integratsiya yo'nalishida muhim qadam sifatida Turk investitsiya jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'armaning ustav fondi 500 mln AQSh dollarini tashkil etib, transport, sanoat va logistika loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan (OTS, 2024). Yilmaz (2023) qayd etishicha, turkiy davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalarining kengayishi aynan infratuzilmaviy bog'liqlik bilan bevosita bog'liq.

Raqamli hamkorlik yo'nalishida elektron hujjat aylanishi va raqamli bojxona tizimlarini uyg'unlashtirish bo'yicha pilot loyihalar boshlangan. OECD (2023) ma'lumotlariga ko'ra, savdo tartiblarini raqamlashtirish tranzit vaqtini 15–25

foizgacha qisqartirish imkonini beradi. Energetika va yashil kun tartibi doirasida esa TDT davlatlari qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish va yashil moliya instrumentlarini kengaytirish bo'yicha kelishuvlarga erishdi (OTS, 2024).

Shu bilan birga, tahlil shuni ko'rsatadiki, tashabbuslarning barqarorligi asosan infratuzilma tayyorgarligi, moliyalashtirish barqarorligi va institutsional muvofiqlashtirish darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda (International Crisis Group, 2023).

Jadval. TDT doirasida Markaziy Osiyoga taalluqli asosiy tashabbuslar

Tashabbus nomi	Ishtirokchi davlatlar	Maqsad	Amalga oshirish bosqichi	Asosiy natijalar (raqamlar)	Barqarorlik omillari
Transkaspiy xalqaro transport yo'lagi (O'rta yo'lak)	Qozog'iston, Ozarbayjon, O'zbekiston, Turkiya, Gruzija	Xitoy–Yevropa yo'nalishida muqobil multimodal tranzitni rivojlantirish	Faol kengayish bosqichi	2023 yilda yuk hajmi 2,7 mln tonnaga yetdi; 2024 prognozi — 4 mln tonna	Infratuzilma modernizatsiya si, port va temiryo'l sig'imi, bojxona koordinatsiyasi
TRACE transport barqarorligi loyihasi (WB)	Qozog'iston (asosiy), mintaqaviy ta'sir	O'rta yo'lak uchastkalarini modernizatsiya qilish va iqlimga chidamli yo'llarni rivojlantirish	Moliyalashtirish bosqichi (2024–2032)	Jahon banki tomonidan \$650 mln moliyalashtirish ajratilgan	Moliyaviy resurslar barqarorligi, davlat-xususiy sheriklik, texnik standartlar
Soddalashtirilgan bojxona yo'lagi	TDT a'zolari	Chegaradan o'tish vaqtini qisqartirish va savdoni yengillashtirish	Bosqichma-bosqich joriy etilmoqda	e-Permit va raqamli hujjat aylanishi tashuvlarni tezlashtirishga qaratilgan	Huquqiy uyg'unlik, raqamlashtirish darajasi, bojxona hamkorligi
Turk investitsiya jamg'armasi	TDT a'zolari	Qo'shma infratuzilma va sanoat loyihalarini moliyalash	Institutsional ishga tushirish bosqichi	Ustav kapitali 500\$ mln; 2025 yildan yirik loyihalarni	Kapital yetarliligi, loyiha portfeli sifati, boshqaruv samaradorligi

Tashabbus nomi	Ishtirokchi davlatlar	Maqsad	Amalga oshirish bosqichi	Asosiy natijalar (raqamlar)	Barqarorlik omillari
				moliyalashtirish rejalangan	
Raqamli logistika va e-hujjat tizimlari	TDT a'zolari	Tranzit jarayonlarini raqamlashtirish va shaffoflikni oshirish	Pilot va kengayish bosqichi	OECD bahosiga ko'ra, raqamlashtirish tranzit vaqtini 15–25% qisqartirishi mumkin	IT infratuzilma, standartlarni uyg'unlashtirish, kiberxavfsizlik
Yashil energetika hamkorligi (Turkic Green Vision)	TDT a'zolari	Qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish va yashil moliyani rivojlantirish	Strategik dastur bosqichi	OTS energiya hamkorligi dasturi 2023–2027 qabul qilingan	Investitsiyalar hajmi, texnologiya transferi, siyosiy majburiyat

Barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillar

Markaziy Osiyo davlatlari uchun TDT tashabbuslarining barqarorligi, birinchi navbatda, normativ majburiyatlarning amaliy bajarilish darajasi bilan belgilanadi. “Soddalashtirilgan bojxona yo‘lagini tashkil etish to‘g‘risidagi bitim” doirasida elektron ruxsatnomalar va oldindan ma’lumot almashinuvi mexanizmlarini joriy etish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu chegaradan o‘tish vaqtini qisqartirishga qaratilgan (OTS, 2021a). Biroq «CAREC Transport and Trade Facilitation Indicators» hisobotiga ko‘ra, Markaziy Osiyo yo‘nalishlarida chegara jarayonlari davomiyligi ayrim hududlarda hali ham bir necha soatlab saqlanib qolmoqda (ADB, 2023). Bu esa institutsional qarorlar bilan haqiqiy logistika amaliyoti o‘rtasida tafovut mavjudligini ko‘rsatadi.

Siyosiy barqarorlik nuqtai nazaridan TDT platformasi Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida ko‘p tomonlama muloqotni faollashtirdi. Bishkek sammiti deklaratsiyasida transport, raqamlashtirish va energetika yo‘nalishlarida qo‘shma loyihalarni kengaytirish bo‘yicha aniq majburiyatlar qayd etilgan (OTS, 2024a). Shu bilan birga, “TRACECA” doirasidagi tahlillar mintaqa yo‘laklarining samaradorligi qo‘shni tranzit davlatlar bilan texnik standartlar uyg'unligiga ham kuchli bog‘liqligini ko‘rsatadi

(TRACECA, 1998/updated). Bu omil TDT tashabbuslari uchun tashqi muhitga sezgirlik yuqori ekanini bildiradi.

Iqtisodiy jihatdan Markaziy Osiyo davlatlari uchun asosiy masala — investitsiya sig'imi va yuk oqimlarining barqarorligi. “Turkic Economies Report 2024” ma'lumotiga ko'ra, transport va energetika bog'liqligini kuchaytirish TDT makonida o'zaro savdoni kengaytirishning asosiy drayveri sifatida baholanmoqda (Turkic Academy, 2024). Shu bilan birga, OECD (2023) mintaqada logistika xizmatlari bozorining parchalanib qolganini qayd etadi, bu o'z navbatda transport loyihalarining iqtisodiy samaradorligini cheklashi mumkin.

Texnologik omillar kesimida raqamli integratsiya darajasi Markaziy Osiyo bo'yicha notekis. OTS doirasida elektron yuk hujjatlari va raqamli logistika platformalarini joriy etish bo'yicha boshlang'ich tashabbuslar boshlangan bo'lsa-da, ularning to'liq samarasi milliy tizimlar o'zaro moslashgan taqdirdagina yuzaga chiqadi (OTS, 2022b). Shunday qilib, mintaq uchun asosiy barqarorlik sinovi — normativ qarorlarni tezkorlik bilan joriy etish, infratuzilma bo'g'inlarini bir vaqtning o'zida rivojlantirish va raqamli standartlarni uyg'unlashtirishdan iborat.

Muhokama

Olingan natijalar yangi regionalizm yondashuvi bilan mos keladi, ya'ni TDT doirasidagi integratsiya asosan funksional bog'liqlik — transport, savdo va logistika orqali chuqurlashmoqda. Bu holat Yilmaz (2023) tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy integratsiya modeli bilan hamohang. Shu bilan birga, TDT hali Yevropa Ittifoqi kabi yuqori darajadagi institutsional integratsiya bosqichiga yetmaganini ta'kidlash lozim.

Markaziy Osiyo uchun strategik jihatdan TDT platformasi tranzit daromadlarini oshirish, eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish va mintaqaviy koordinatsiyani kuchaytirish imkonini bermoqda. Biroq barqarorlikni ta'minlash uchun infratuzilma modernizatsiyasi, raqamlashtirishni chuqurlashtirish va qo'shma moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish zarur.

Muallif xulosasiga ko'ra, TDT doirasidagi Markaziy Osiyo tashabbuslari o'sish bosqichidan tizimli barqarorlik bosqichiga o'tish arafasida turibdi. Keyingi bosqichda asosiy vazifa — institutsional qarorlarni amaliy loyihalar bilan to'liq bog'lashdan iborat.

Xulosa va tavsiyalar

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, TDT doirasida Markaziy Osiyo tashabbuslari so'nggi yillarda institutsional va infratuzilmaviy jihatdan sezilarli faollashgan bo'lsa-da, ularning uzoq muddatli barqarorligi hali to'liq kafolatlangan deb bo'lmaydi. O'rta yo'lak orqali yuk tashish hajmining 2023 yilda 2,7 mln tonnaga yetgani mintaqaning tranzit salohiyati oshayotganini tasdiqlaydi (World Bank, 2024). Shu bilan birga, CAREC indikatorlari chegaradan o'tish vaqti hamon yuqori ekanini

ko'rsatadi (ADB, 2023). Bu esa institutsional qarorlar va amaliy logistika natijalari o'rtasida tafovut mavjudligini bildiradi.

Tadqiqot gipotezasi qisman tasdiqlandi: TDT tashabbuslarining barqarorligi haqiqatan ham institutsional uyg'unlik, moliyaviy ta'minot va infratuzilma tayyorgarligining birgalikdagi ta'siriga bog'liq. Biroq Markaziy Osiyo kesimida ayniqsa joriy qilish intizomi va raqamli uyg'unlik hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Amaliy jihatdan Markaziy Osiyo davlatlari uchun ustuvor vazifa — transport bo'g'inlarini birgalikda modernizatsiya qilish, bojxona jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va Turk investitsiya jamg'armasi resurslaridan maqsadli foydalanishni ta'minlashdir (Turkic Academy, 2024; OTS, 2024). Aks holda, tashabbuslar normativ darajada faol bo'lib qolib, haqiqiy iqtisodiy samaradorlik cheklanishi mumkin.

Jadval. Markaziy Osiyo uchun TDT tashabbuslari bo'yicha ustuvor choralar

Yo'nalish	Mavjud muammo	Aniq tavsiya	Kutilayotgan natija	Mas'ul aktorlar
Transport va logistika	Chegara o'tish vaqtining yuqoriligi	Yagona raqamli tranzit platformasini joriy etish	Tranzit vaqtini 20–30% qisqartirish	TDT Kotibiyati, bojxona organlari
Infratuzilma	Yo'lak bo'ylab sig'im nomutanosibligi	Temiryo'l va portlarni sinxron modernizatsiya qilish	Yuk oqimini barqaror oshirish	Milliy hukumatlar, TIF
Savdo integratsiyasi	O'zaro savdo ulushi past	Preferensial savdo mexanizmlarini kengaytirish	Ichki savdo hajmining o'sishi	Savdo vazirliklari
Raqamlashtirish	Milliy tizimlar nomuvofiqligi	e-CMR va e-Permit standartlarini uyg'unlashtirish	Chegara shaffofligini oshirish	Transport va IT idoralari
Moliyalashtirish	Loyiha portfeli cheklangan	Turk investitsiya jamg'armasi orqali qo'shma loyihalarni kengaytirish	Investitsiya oqimini ko'paytirish	TIF, milliy rivojlanish banklari

Umuman olganda, Markaziy Osiyo uchun TDT platformasi muhim tranzit va integratsion imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq keyingi bosqichda asosiy e'tibor normativ tashabbuslardan amaliy natijalarga o'tishni tezlashtirishga qaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ADB. (2023). CAREC Transport and Trade Facilitation Indicators Annual Report 2023. Asian Development Bank.
2. Amreyev, B. (2022). The Organization of Turkic States as an Emerging Regional Actor. Perceptions: Journal of International Affairs.
3. Huseyn, R. (2023). Institutional Basis for Economic Cooperation in the Turkic States and Turkic World Vision-2040.
4. International Crisis Group. (2023). Central Asia's Connectivity Challenge.
5. Musabay Baki, P. (2022). Turkic World Vision-2040: A Step Forward for the Resilience of Turkic Cooperation. Perceptions.
6. OECD. (2023). Enhancing Connectivity and Trade Facilitation in Central Asia.
7. Organization of Turkic States (OTS). (2021). Turkic World Vision – 2040.
8. Organization of Turkic States (OTS). (2022). OTS Strategy for 2022–2026.
9. Organization of Turkic States (OTS). (2024). Bishkek Summit Declaration.
10. Purtaş, F. (2022). Türkiye and the Organization of Turkic States. Insight Turkey.
11. TRACECA. (1998). Basic Multilateral Agreement on International Transport for Development of the Europe–Caucasus–Asia Corridor.
12. Turkic Academy. (2024). Report on Turkic Economies 2024: Strengthening Transport and Energy Connectivity among Turkic States.
13. World Bank. (2024). Middle Corridor: Opportunities and Challenges for Trade and Transport.
14. Yilmaz, S. (2023). Economic Integration in the Turkic World: Opportunities and Constraints. Bilig.